

SHAXS KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASINING ROLI

Jo'rayeva Feruza

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli, musiqaning madaniy hayotimizda tutgan o'rni, shaxsning shakllanishida musiqaning ahamiyati, musiqa o'qituvchisining ma'naviy axloqiy qiyofasi va unga qo'yilgan zamonaviy talablar hamda sharq mutafakkirlarini musiqa san'atini rivojlantirish haqidagi fikrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa, musiqa estetikasi, shaxs, jamiyat, tafakkur, faoliyat, muloqot, shaxs, qobiliyat, bilim, malaka, etika, tasavvur, musiqa, tovush, obraz, g'oya, san'at.*

Аннотация: *в данной статье рассмотрены роль музыкального образования в развитии личности, роль музыки в нашей культурной жизни, значение музыки в формировании личности, духовно-нравственный облик учителя музыки и современные требования к нему, а также мнения восточных мыслителей о развитии музыкального искусства.*

Ключевые слова: *музыка, музыкальная эстетика, человек, общество, мышление, деятельность, общение, личность, способности, знания, компетентность, этика, воображение, музыка, звук, образ, идея, искусство.*

Abstract: *in this article, the role of music education in the development of personality, the role of music in our cultural life, the importance of music in the formation of personality, the spiritual and moral image of a music teacher and the modern requirements for him, as well as the opinions of eastern thinkers about the development of the art of music information about.*

Key words: *music, music aesthetics, person, society, thinking, activity, communication, personality, ability, knowledge, competence, ethics, imagination, music, sound, image, idea, art.*

Shaxs ijodiy salohiyatini yuksaltirishda musiqa va san'atning boshqa turlarining ahamiyati, yosh avlodni tarbiyalashda san'atning o'rni katta ekanligini anglashning kuchayishi ilmiy-texnikaviy inqilob natijalaridandir. Aniq fanlar: matematika, fizika, biologiya, astronomiya va boshqa fanlar o'quvchining kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi va tafakkurini rivojlantiradi. San'at esa o'quvchining his-tuyg'ulari va axloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Musiqa olami inson ruhiyatining hissiy sohasidir. Uning kuchi shaxs va uning kechinmalarining subyektiv tomonlarini tashkil etuvchi tuyg'ularning bevosita uyg'onishidadir. Eng insoniy tuyg'ular – qayg'uli vaziyatlarda hamdardlik, g'alabadagi yorqin quvonch va shu kabi holatlarda musiqa o'z ovozi bilan osongina va to'g'ridan-to'g'ri uyg'otadi va shu bilan insonni hissiy jihatdan tarbiyalaydi, uni haqiqiy tajribalarga tayyorlaydi. Aniq fanlar va san'at, fizika va musiqa bir-biriga qarama-qarshi emas, balki yaxlit shaxsni tarbiyalash tizimida bir-birini to'ldiradi, chunki

ular insonda va uning har qanday faoliyatida oqilona va hissiylikning zarur va o'zaro bog'liq tomonlarini ifodalaydi.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olemiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish.

Maktabda musiqqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarlarini badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bo'lar fiziologiyasi, musiqqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shx bo'lishi lozim.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, sozlashni bilmay turib, musiqqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ulami qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi" deb takitlaydi o'z asarlarida I.A.Karimov [1].

Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini

kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilim larni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. O'qituvchilik kasbi sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. U o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rishi hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashishi, har bir darsni o'quvchilarni hayot tajribasiga bogiagan holda olib borishi, hilma-hil metodlar, innovatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, kompyutnr slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. O'z kasbiy mutaxassisligini puxta egallagan bo'lishi, bolalar ovozigacha o'zining ovozini moslab kuyay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, sinfdan tashqari to'g'araklarga o'quvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlarda, tadbirlarda o'quvchi!ar faol ishtirok etishi kerak, O'qituvchi har bir darsini senariy muallifi, artisti, ijrochisi hamda rejissyori bo'lishi bilan birga zamon bilan hamnafas qadam tashlashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbini egallash uchun albatta kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi dardir.

“Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak” deb ta'kidlaydi I.A.Karimov [2]. Sog'Tom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sog'iom ruhiy xislatlarni, sharqona axloq odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”.

Buyuk pedagog A.Avloniy shunday degan edilar “Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi”. “Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot-yo halokat. Yo saodat-yo falokat masalasidir” deb yozgan edi.

Buyuk mutaffakkir shoir A.Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday dedi: “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanot tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”.

Al Forobiy fikricha: “Musiqa - nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir” , “Kimki ilm xikmat o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo o'zi ma'naviy barkamollikka erishmog'i lozim”- deydi Abu Rayxon Beruniy. “Har kimki hikmat o'rganman desa, yoshlikdan bolasini, ilmi va dono kishilardan saboq olsin, shundagina u komillik darajasiga yetadi”; Shunday ekan, hozirgi davrda, musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondashuv uning metodologiyasini chuqur o'rganish talab etadi. Umumta'lim maktablarida esa, musiqa madaniyati darslarning asosiy maqsadi, o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish vositasida musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero kuy va ohang ta'sirida inson ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, ona tabiatga, ona Vatanga muhabbat his tuyg'ularini shakllantirib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki Musiqaning tarbiyaviy roli olamga insonparvarlik munosabatini shakllantirish, shaxs tomonidan abadiy insoniy qadriyatlar – sevgi, go‘zallik, mehr-oqibat, inson qadr-qimmatini, hayotga muhabbat hissiy tamoyillarini o‘zlashtirishdan iborat. Musiqiy asarlar uyg‘otadigan his-tuyg‘ular va kechinmalar, bolaning ularga bo‘lgan munosabati olijanoblik, odoblilik, kattalarni hurmat qilish kabi fazilatlarni egallashga asos bo‘ladi. Ular insonning onasini, ona Vatanini, mehnatini sevish qobiliyatini ochib beradi. Buyuk qadriyatlarga, xalq an‘analarini, ma‘naviyatini asrab-avaylashga bog‘laydi. Bu insonning ichki dunyosiga qiziqishning yanada rivojlanishining kafolati, atrofdagilarga hamdardlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatidir. Musiqa ruhiy muloqot va takomillashtirishning predmeti va manbaidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch”, - T.: “Ma‘naviyat nashriyoti”, 2008-yil.
2. I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch”, - T.: “Ma‘naviyat nashriyoti”, 2008-yil.